


**2020- yil yakuni**



## **O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SO'G'LIQNI SAQLASH TO'G'RISIDA TAHLILIY MATERIAL**





**Tibbiyot muassasalari tarmog'iga** shifoxona va ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, onalik va bolalik himoyasini ta'minlash hamda sanitariya-epidemiologiya yo'nalishidagi va boshqa muassasalar kiradi.

**Shifoxona muassasasi** – kechayu kunduz tibbiy yordam ko'rsatuvchi, bemorlarni diagnostika, davolash va reabilitatsiya qilish uchun mo'ljallangan, professional tayyorlangan amaliyotga ega, kamida bitta shifokori mavjud statsionar davolash muassasasi.

**Aholining kasallanishi** yil davomida davolash-profilaktika muassasasiga murojaat qilganda yoki profilaktik ko'rikdan o'tayotganda aniqlangan (yoki dispanser kuzatuvi ostiga olingan) ilk bor tashxis qo'yilgan bemorlar soni bilan izohlanadi.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA 2020- YIL YAKUNIGA KO'RA SOG'LIQNI SAQLASH SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI


2021- yil 1- yanvar holatiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 1232 ta shifoxonalar faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 48,1 % i (593 tasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlar hisoblanadi. Jami shifoxonalar soni 2019- yilga nisbatan 2,2 % ga (27 taga) oshdi.

**Ma'lumot uchun:** ► **Shifoxona** — statsionar sharoitda tibbiy yordam ko'rsatuvchi sog'lqn ni saqlash muassasasi hisoblanadi

► **Ambulatoriya-poliklinikalari** ambulatoriya sharoitida tibbiy yordam ko'rsatuvchi va (yoki) tibbiy tahlil o'tkazadigan sog'lqn ni saqlash muassasasi (poliklinikalar, ambulatoriya, dispanserlar, tibbiy-sanitariya qismlari va boshqalar) hisoblanadi.



### O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan davolash-profilaktika muassasalarini mulkchilik shakli bo'yicha taqsimlanishi (birlik)



2020- yil yakuniga ko'ra, O'zbekiston Respublikasida 6032 ta ambulatoriya-poliklinikalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 57,6 % i (3475 tasi) mulkchilik shakli bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalar hisoblanadi. Ambulatoriya-poliklinikalari soni bir yil mobaynida 1,3 % ga (77 taga) ko'paydi.



## 2020- yil yakuniga ko'ra respublikada faoliyat yuritayotgan shifoxona va ambulatoriya-poliklinikalari soni (birlik)

### Ambulatoriya-poliklinikalari soni



### Shifoxonalar soni



Hududlar kesimida faoliyat barcha mulkchilik shaklidagi yuritayotgan shifoxonalar soni bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Andijon viloyati, (154 ta) Toshkent shahri (147 ta), Farg'ona(126 ta) hamda Samarqand viloyatlari (109 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa hududlarga nisbatan shifoxonalar soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Sirdaryo viloyat (42 ta) hamda Navoiy viloyatlarida (37 ta), kuzatilmоqda.

Shuningdek, barcha mulkchilik shaklidagi faoliyat yuritayotgan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha hududlar kesimida tahlil qiladigan bo'lsak eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahri (921 ta), Toshkent viloyati (535 ta), Buxoro (531 ta), Farg'ona (518 ta), Samarqand viloyatlari (507 ta) hamda Qashqdaryo viloyatlari (504 ta) hissasiga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, boshqa hududlarga nisbatan ambulatoriya-poliklinikalari soni bo'yicha eng kam ko'rsatkich Jizzax (184 ta) va Sirdaryo viloyatlarida (157 ta) kuzatilmоqda.





## Hududlar bo'yicha 2020- yil mobaynida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni (ming, kishi)

Qoraqalpog'iston Resp. 515,0 Samarqand

Andijon 1112,6 Surxondaryo

Buxoro 601,2 Sirdaryo

Jizzax 418,4 Toshkent

Qashqadaryo 907,2 Farg'onha

Navoiy 356,1 Xorazm


Namangan 946,6 Toshkent sh.

2020- yil oxirida O'zbekiston Respublikasida shifoxona muassasalarida davolangan bemorlar soni 10919,1 kishini tashkil etib, hududlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Farg'ona viloyatiga to'g'ri keldi va uning soni 1242,0 ming kishi ekanligi qayd etildi. Eng kam ko'rsatkich esa Sirdaryo viloyatiga to'g'ri keldi ya'ni 325,4 ming kishini tashkil etdi.





## O'zbekiston Respublikasi shifoxona muassasalarining bemor o'rnlari soni (2020- yil oxirida, birlik)



2020- yil oxirida O'zbekiston Respublikasida shifoxona muassasalarining bemor o'rnlari soni 158398 birlikni tashkil etib, hududlar kesimida tahlil qilinganda eng yuqori ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri keldi ya'ni 25536 birlikni tashkil etdi. Eng kam ko'rsatkich esa Sirdaryo viloyatiga to'g'ri keldi ya'ni 4039 birlikni tashkil etdi.




## O'zbekiston respublikasi hududlari kesimida shifoxonalar va bemor o'rirlari soni (2020- yil yanvar-dekabr)



161,0



Shifoxonalarda  
bemor o'rirlar  
soni, ming birlik



30,1



Kichik korxonalar va  
mikrofirmalardagi  
bemor o'rirlar soni,  
ming birlik



46,6



10 000  
aholiga  
nisbatan  
bemor  
o'rirlari soni

2020- yilda Respublika bo'yicha shifoxonalarda jami 161,0 mingta bemor o'rirlari foydalanishda bo'lgan, shundan 18,7 % i (30,1 mingtasi) xususiy mulkchilik shaklidagi subyektlarga tegishli. 10 000 aholiga nisbatan bemor o'rirlari soni 46,6 tani tashkil etmoqda.




## Tez tibbiy yordam faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari (yil oxirida)



Tez tibbiy yordam stansiyalari kichik stansiyalar va punktlari soni 2020- yilda 2689 tani tashkil etib, 2019- yilga nisbatan (1114 ta) 170,7 % ga oshdi, shu jumladan, 2020- yilda bajarilgan chaqiriqlar soni 143207,2 mingtani tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 107,4% (133331,3 ming) ga oshdi. Shuningdek, 2020- yilda tez tibbiy yordam ko'rsatilgan shaxslar soni 22948,1 ming kishini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan 2,5 martaga ortdi.



## Nogironligi bo'lgan shaxslar soni to'g'risida ma'lumot (yil oxirida, kishi)



2020- yil oxiriga O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 758253 kishini tashkil etgan bo'lib, 2019- yilda bu ko'rsatkich 740707 kishini tashkil etgan. 2020- yil oxiriga nisbatan 102,4 % ga ortgan.






## Nogironligi bo'lgan shaxslarni hududlar kesimida jinsi bo'yicha taqsimlanishi (2020- yil oxirida)

Ayollar (%)



Erkaklar (%)



Qoraqalpog'iston Resp.

Andijon

Buxoro

Jizzax

Qashqadaryo

Navoiy

Namangan

Samarqand

Surxondaryo

Sirdaryo

Toshkent

Farg'ona

Xorazm

Toshkent sh.

57,4

56,6

56,7

53,8

57,5

56,2

56,5

56,4

58,3

56,0

59,6

57,7

55,8

56,5

O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 758,3

ming kishini tashkil etib, ulardan 326,2 ming nafari (43,0 % ni) ayollar, 432,1 ming nafari esa erkaklar (57,0 % ni) tashkil etdi.



## Nogironligi bo'lgan shaxslarni taqsimlanishi (2020- yil oxirida, ming kishi)

Jami  
758,3

115,4

16 yoshgacha nogironligi  
bo'lgan bolalar

70,8

1- guruh

510,1

2- guruh

62,0

3- guruh

2020- yil oxiriga O'zbekiston Respublikasida nogironligi bo'lgan shaxslar soni 758,3 ming kishini tashkil etgan bo'lib, nogironligi bo'yicha tahlil qilinganda eng yuqori ulushi 2- guruh 510,1 ming kishin ekanligi qayd etildi. Eng kam nogironligi ulushi 3- guruh to'g'ri keldi va uning ko'rsatkichi 8,2 % ni tashkil etdi.

Ijtimoiy soha va barqaror rivojlanish statistikasi boshqarmasi  
Tel.: (71) 202-81-62